

Davlat soliq qo‘mitasi raisi o‘rinbosari J.Abdiyevning faoliyat samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishishini baholashning ASOSIY MEZONLARI

(soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish, Soliq solish metodologiyasi masalalari) 01.08.2022-yil holatiga

Soliq qonunchiligi normalarini bir xilda qo‘llanilishini ta‘minlash bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida jamoatchilik nazorati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022 yil 12 maydagi 255-son qarori mazmun-mohiyati, keng yoritilishini maqsadida joriy yilning iyul oyida ommaviy axborot vositalarida tushuntirishlar berildi.

Jumladan, ushbu qaror bilan soliq qonunchiligida yangiliklar bo‘yicha Qo‘mita tomonidan “O‘zbekiston - 24” telekanalida va Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy saytlarida chiqishlar qilindi.

Shuningdek, qarorlar ijrosi yuzasidan Qo‘mitaning ijtimoiy tarmoqlardagi (telegram, facebook, instagram, twitter) sahifalariga ma‘lumotlar joylashtirildi.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali yo‘llangan 953 ta savollarga tezkor javoblar tayyorlab, mualliflarga yetkazildi. Bundan tashqari, Qo‘mitaga kelib tushgan 238 ta soliq to‘lovchilarning murojaatlari ko‘rib chiqilib, mualliflarga javob xatlari yuborilishi ta‘minlandi.

Soliq majburiyatiga ega bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan soliq hisobotlarini topshirilishini monitoring qilib borish

2022 yil iyun oyi uchun hisobot topshirish majburiyatiga ega bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz, foyda, aylanmadan olinadigan soliq, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq hisobotlarini taqdim qilinishi tahlil qilinganda quyidagilar aniqlandi.

Aylanmadan olinadigan soliq hisobotini respublika bo‘yicha **285,2 mingta** korxonaning **1,3 mingtasi (0,4%)** taqdim qilmagan.

2022 yil iyun oyi uchun **QQS bo‘yicha** hisobot taqdim etilishi lozim bo‘lgan **157,5 mingta** korxonadan **1,5 tasi (1 %)** hisobot taqdim qilmagan.

Foyda solig‘i bo‘yicha hisobot taqdim etilishi lozim bo‘lgan **157,5 mingta** korxonadan **9 mingtasi (5,7 %)** hisobot taqdim qilmagan.

2022 yil **iyun oyi** uchun **jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i** hisobotini topshirish majburiyatiga ega bo'lgan **476,4 mingta** yuridik shaxslardan **18 mingtasi** (3,8 %) hisobot taqdim qilmagan.

2022 yil iyun oyi uchun **aksiz solig'i** bo'yicha hisobot taqdim etishi lozim bo'lgan **4,6 mingta** korxonadan **12 tasi** (0,02%) hisobotni taqdim qilmagan.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq hisobot taqdim etilishi lozim bo'lgan **1 984 ta** korxonadan **138 tasi** (7 %) hisobot taqdim qilmagan.

O'zini o'zi band qilgan xodimlarni soliq organlarida hisobga olish

Aholini tadbirkorlikka yanada keng jalb qilish orqali o'zini o'zi band qilgan shaxslarni soliq organlarida hisobga olinishi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar natijasida o'tgan 2022-yil davomida **817,6 ming nafar** fuqarolar o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida soliq organlarida hisobga olinishi ta'minlandi.

Jumladan, Ijtimoiy yo'nalishlar bo'yicha xizmatlar (*Uyda repetitorlik qilish, bolalarga qarab turish va ularni parvarish qilish, uy xo'jaligini yuritish, xonalarni tozalash, xalq tabobati, hamshiralik ishi*) **120,1 ming nafar**, Sanoat yo'nalishi bo'yicha xizmatlar (*Yog'och me'morchiligi, santexnika xizmati, elektr montaj ishlari, makulatura, plastik idish, temir tersak to'plash va qo'shimcha xomashyo to'plash*) **116,6 ming nafar**, Qishloq xo'jaligi yo'nalishi bo'yicha xizmatlar (*Chorva mollarini o'tlatish, ularni parvarish qilish, qishloq xo'jalik o'simliklarini ekish va parvarish qilishda tomorqa egalariga yordam berish*) **319,8 ming nafar**, Axborot kommunikatsiya yo'nalishi bo'yicha xizmatlar (*Ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyat, dasturiy ta'minot, mobil ilovalar va veb saytlarni ishlab chiqish, matnni yaratish va ishlov berish*) **18,3 ming nafar**, Maishiy xizmatlar (*Sartaroshlik, manikyur, kosmetolog, pedikyur, uyda kir yuvish va dazmollash, kalitlar tayyorlash, poyabzal tikish, ta'mirlash va bo'yash xizmatlari*) **196,6 ming nafar**, Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish (*Non, uyda pop-korn, muzqaymoq, salatlar, salqin ichimliklar, ayron, go'ja hamda dehqon bozorlarisha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish*) **45,9 ming nafar** aholi bandligi ta'minlandi.

Shuningdek, 2022 yilning 1-avgust holatiga **168,8 ming nafar** aholi tomonidan **41 611,5 mln.so'm** ijtimoiy soliq summasi to'lab berilgan.

«Ijro.gov.uz» ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali topshiriq va vazifalar ijrosining ta'minlanishi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Vazirlar Mahkamasining "Vazirlar Mahkamasining "Ko'chma savdo faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini yanada keng joriy etish hamda savdo avtomati orqali chakana savdo faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 3 avgustdagi 485-son qaroriga o'zgartirish va

qo'shimchalar kiritish to'g'risida" qarori loyihasi Davlat soliq qo'mitasining 2022 yil 24 iyundagi 18/1-83302-son xati bilan Vazirlar Mahkamasiga yuborildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahsulotlar (tovar va xizmatlar) yagona elektron milliy katalogini joriy etish, tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida tuzilgan shartnomalarni elektron ro'yxatdan o'tkazish va tovar-moddiy boyliklarni olish uchun ishonchnomalarni elektron shaklda rasmiylashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 28 apreldagi 249-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" Hukumat qarori loyihasiga kiritilib, DSQning 2022 yil 6 iyuldagi 26/1-88125-son xat bilan Vazirlar Mahkamasiga yuborildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatishni yangi mexanizmlarini joriy etish hamda kichik va o'rta biznes transformatsiyasida soliq va moliya organlarining faol ishtiroki to'g'risida"gi qaror loyihasi tayyorlandi hamda Davlat soliq qo'mitasining 2022 yil 19 apreldagi 14/2-51498-sonli xati orqali Vazirlar Mahkamasiga kiritilishi ta'minlandi. Mazkur loyihada soliq sohasidagi muammolarni monitoring qilish va xalqaro tajriba asosida soliq ma'murchiligi metodologiyasini takomillashtirib borish bo'yicha Davlat soliq qo'mitasi huzurida Ilmiy-tahliliy markaz tashkil etish ko'zda tutilgan. Mazkur topshiriq ijrosiga muvofiq tayyorlangan normativ-huquqiy hujjat loyihasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 13 maydagi 02/1-59411/1-6Z4-son xati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Huquqiy ekspertiza va kompleks tahlil qilish departamenti rahbari B.M.Mavlonovga yuborilgan.